

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TURAKULOVA UMIDAXON ANVAROVNA

**TOHIR MALIK ASARLARIDAGI O'XSHATISHLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Turakulova Umidaxon Anvarovna

Tohir Malik asarlaridagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi..... 3

Turakulova Umidaxon Anvarovna

Linguocultural research of similes in Tohir Malik’s works..... 21

Туракулова Умидахон Анваровна

Лингвокультурологическое сравнение в произведениях Тахира Малика 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 44

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TURAKULOVA UMIDAXON ANVAROVNA

**TOHIR MALIK ASARLARIDAGI O‘XSHATISHLARNING
LINGVOMADANIY TADQIQI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Namangan – 2025

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fil2372 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ganiyeva Shodiya Azizovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Jamoliddinova Dilnozaxon Mirxojiddinovna
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Usmanov Farxad Faxriddinovich
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent


Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi PhD.03/04.06.2020.Fil.76.04 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "9" sentabr soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01; faks: (99869) 228-85-02, e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (2014 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi 161. Tel: (99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "29" avgust dagi 36 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Y.Sadikov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filol.f.d. (DSc), professor

I.O'.Darvishov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

F.I.Karimova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va madaniyatni bog‘liqlikda o‘rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik sohasi ko‘plab lingvistik maktablarning asosiy tadqiq yo‘nalishiga aylanib, til va til egasining milliy madaniyati, mentaliteti, qarashlari, lisoniy tafakkuri va tasavvurlari bilan uyg‘un holda o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor sezilarli darajada barqarorlashdi. Bu holat tilshunoslikda olam manzarasini lisoniy ong va tafakkur bilan anglash, ifodalashdagi til birliklari lingvomadaniy vositalarini ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan o‘rganish ehtiyojini vujudga keltirdi. Lingvokommunikativ jarayonlardagi hodisalar yangi qarashlar va tamoyillar orqali o‘rganilib, milliy-madaniy shakllangan qadriyatlar, milliy me‘yoriy etalonlar, axloq qoidalari, har bir millatning milliy ongi bilan bog‘liq masalalar tilning asrlar davomida shakllangan barqaror birliklarida o‘z aksini topganligi sababli tilni antropotsentrik konsepsiyalar, qarashlar va yondashuvlar asosida o‘rganish aniq to‘xtam, yechim va xulosalar chiqarishga imkon yaratdi. Shu jihatdan, tilshunoslikda milliy o‘xshatishlarni antropotsentrik paradigma tamoyillariga tayangan holda tadqiq etish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida til va tafakkur, til va madaniyatning aloqadorligi, tilda olam manzarasining milliy tasvirlari masalalari qadimdan faylasuflar, badiiy adabiyot vakillari va tilshunoslar e‘tiborini tortib kelgan muhim masalalardan sanaladi. Shu asosda, jahon tilshunoslik maktablarida tilni madaniyat bilan uzviy aloqadorlikda o‘rganish, ma‘lum xalq tiliga xos umumiy va farqli jihatlarni madaniyatlararo yoritish hamda muayyan xalq madaniyati va ijtimoiy muhitini aks ettiruvchi obrazli ifoda vositalarini xalq adabiyotiga bog‘liq holda tadqiq etish lingvomadaniyatshunoslikka doir izlanishlar salmog‘ining ortishiga zamin yaratmoqda. Muayyan milliy qarashlari lisoniy tafakkur tarzini o‘rganishda o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi keng qamrovli ilmiy-tarixiy ahamiyatga ega masalalardan biri sifatida qayd qilinmoqda.

Respublikamizda olib borilayotgan ilmiy-ma‘rifiy, milliy-ma‘naviy va madaniy sohadagi islohotlar, tilimizning milliy ong va milliy tafakkurni ifodalovchi vosita ekanligi sababli, lingvomadaniy jihatdan tadqiq etish, uning jozibador va betakror ekanligini ochib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni salmoqli darajada faollashtirishni talab etmoqda. “Bugungi globallashtirish davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada, avvalo. o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir”¹. Shu sababli “biz ajdodlarimizning donishmandlik an‘analariga amal qilib, ularning g‘oyalarini teran anglagan holda, qat‘iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo‘lidan bormoqdamiz”². Milliy adabiyotimiz namunalardagi o‘xshatishlarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish o‘zbek xalqining

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5850-сон (21.10.2019) Фармони. Манба: <https://lex.uz/uz/docs/4561730>

² Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутқи / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017. – № 196 (6860)

milliy qarashlaridagi o‘ziga xos go‘zal qadriyatlarini, milliy me‘yor va o‘lchovning mohiyatini o‘rganish zaruriy vazifa sifatida qo‘yilmoqdaki, mazkur tadqiqot ham zimmadagi vazifalarni bajarishda o‘ziga xos ulush bo‘lib qo‘shiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-307-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, shuningdek, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyo tilshunosligida til bilan tafakkurning, til bilan madaniyatning aloqadorligi haqidagi qarashlar dastlab antik davr faylasufi Arastu, keyinroq V.fon Gumboldt, E.Sepir, B.Uorf, L.Vaysgerber asarlarida o‘z ifodasini topgan. Keyinchalik zamonaviy tilshunoslik doirasida D.S.Lixachev, N.D.Arutyunova, V.N.Teliya, V.I.Karasik, S.V.Ivanova, V.A.Maslova, Z.K.Sabitova, N.F.Alefrenko kabi olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan³. M.I.Cheremisina, L.A.Lebedovalar o‘xshatishlarni morfologik, mazmuniy va stilistik jihatdan tadqiq qilganlar⁴. O‘zbek tilshunosligida

³ Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка / Русская словесность: Антология / под. ред. В.П. Нерознака. – М.: Академия, 1997. – 317 с.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека, 2-е изд. испр. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1998. – 896 с.; Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Карасик В.И. Лингвокультурные концепты: подходы к изучению / Социоллингвистика вчера и сегодня. Сб. научных трудов. – М., 2004. – С. 136-146.; Иванова С.В. Лингвокультурологический аспект исследования языковых единиц: Дисс. ...д-ра филол. наук. – Уфа, 2003. – 364 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – 4-е изд., стер. – М.: Академия, 2010. – 208 с.; Сабитова З.К. Лингвокультурология. – М.: Флинта: Наука, 2013. – 528 с.; Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловое пространство языка.– М.: Флинта, Наука. – 2014. – 283 с.

⁴ Черемисина М.И. Сравнительные конструкции русского языка. – Новосибирск: Наука, 1976. – 239 с.; Лебедева Л.А. Устойчивые сравнения русского языка во фразеологии и фразеографии. – Краснодар, 1999. – 196 с.

R.Qo'ng'urov, M.Mukarramov, D.Xudoyberganovalarning ishlarini sanash mumkin⁵. O'zbek tili turg'un o'xshatishlarini lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilishga bag'ishlangan dastlabki izlanishlar N.Mahmudov ishlarida ko'zga tashlanadi, olimning mavzu yuzasidan turkum maqolalari e'lon qilingan⁶. N.Mahmudovning D.Xudoyberganova bilan hamkorlikda yaratgan "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da tilimizdagi 500 dan ortiq o'xshatishlarning izohi berilgan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda, jumladan, F.Usmanov, Jo Min Yonglar o'xshatishlarning lingvomadaniy⁷, S.Babanazarova kognitiv⁸ va N.Ismoilova⁹ "Qur'oni karim" tafsiridagi o'xshatishlarning struktur jihatdan o'rgangan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq "O'zbek tilining sistem va antropotsentrik tadqiqi" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi Tohir Malik qissalarida qo'llangan o'xshatishlarning lingvomadaniy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o'xshatishlarning jahon, shu jumladan, o'zbek tilshunosligida o'rganilish holatini aniqlash;

o'xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning o'rnini belgilash;

badiiy matnda o'xshatishlarning o'rnini ochib berish;

Tohir Malik qissalarida qo'llangan o'xshatish etalonlari va ularning lingvomadaniy xususiyatlarini ko'rsatib berish;

adib qissalaridagi o'xshatishlarda xalq milliy-madaniy qarashlarining namoyon bo'lishini dalillash;

yozuvchining turg'un va erkin o'xshatishlardan foydalanish mahoratini ko'rsatib berish.

Tadqiqotning obyektı sifatida Tohir Malikning "Shaytanat", "Savohil", "Ov", "So'nggi o'q", "Murdalar gapirmaydilar", "Alvido, bolalik", "Imtihon", "Charxpalak", "Devona", "Falak", "Iblis devori", "Ozod inson haqida qo'shiq", "Jinoyatning uzun yo'li", "Xazonrezgi" kabi qissalaridagi o'xshatishlar tanlandi.

Tadqiqotning predmeti Tohir Malik qissalarida qo'llangan o'xshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlaridir.

⁵ Kўнгуrow P. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.; Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – 88 б.; Худайберганова Д.С. Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке: Дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1989. – 127 с.

⁶ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур махсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24. Махмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 1. – Б. 3-8; Mahmudov N. O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi // Til va adabiyot ta'limi. – Тошкент, 2019. – № 2. – В. 5-8.

⁷ Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.; Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 142 б.

⁸ Babanazarova S. O'xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi (O'zbek tilidagi o'xshatishlar misolida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Toshkent, 2023. – 122 b.

⁹ Ismoilova N. Qur'oni Karim tafsiridagi o'xshatishlarning lingvistik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Andijon, 2023.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tavsiflash, tasniflash, qiyoslash, semantik, lingvomadaniy, statistik va komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

milliy ong, milliy-mental va badiiy tafakkur qirralarining lisoniy ong, lisoniy tafakkur orqali voqelanish xususiyatlari va ularning millat lingvistik konseptlari orqali amalga oshish yo‘llari, omillari hamda sabablari borliqdagi narsa-buyum, predmet va ramz-timsollarga nisbatan baholanishi masalalari o‘xshatish etalonli birliklari vositasidagi hosilalar ekanligi ochib berilgan;

Tohir Malik badiiy lisoniy tafakkuri mahsullari hamda xalqimizning milliy-mental til birliklarining ko‘nikmaviy hosilalariga aylangan o‘xshatishlar orqali xalqning o‘ziga xos tafakkur tarzi, dunyo haqidagi tushuncha va qarashlari, tasavvurlari, olam manzarasining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, nutqiy jonli va badiiy holatda aks etishi o‘zbek tili lingvistik qonuniyatlari asosida dalillangan;

yo‘zuvchi qissalarida qo‘llangan “bola” etalonli o‘xshatishlarning *qo‘rquv*, *bezovta*, *holat* semali o‘xshatishlar hamda “*xotinday*”, “*mushtday*” kabi o‘xshatishlarning lisoniy belgi-xususiyatlari, nutqiy voqelikda anglatgan konsepsiyaviy qo‘llanish usullari, fikr ifodalashdagi kommunikativ-lingvistik vazifasi, emotsional ta’sir ko‘lami, mazmun qamrovidagi pozitsiyaviy o‘rni hamda milliy lingvomadaniy miqdor va sifat belgilari, ularning badiiy va so‘zlashuv nutqidagi voqelanishi ilmiy hamda amaliy jihatdan isbotlangan;

Tohir Malik badiiyatida qo‘llagan individual o‘xshatishlarning kongnitiv tizimi va uzualligi hamda o‘zbek milliy tili etaloniga aylangan turg‘un va erkin o‘xshatishlar, ulardagi milliy-madaniy stereotiplarning ifodalanishidagi pragmatik, badiiy, hissiy bo‘yoqdorlik darajalari milliy-tarixiy va zamonaviy jihatdan lingvomadaniy tamoyillar orqali aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot doirasida to‘plangan materiallar, qo‘yilgan masalalarni tadqiq etish natijasida olingan xulosalar tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi ko‘rsatib berilgan;

o‘xshatish etalonlarining tanlanishidagi milliy o‘ziga xos konnotatsiya lingvomadaniy jihatdan dalillangan;

o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlar orqali insonning olamni idrok etishi va anglashi xalq ruhi va mentaliteti, milliy baho bilan bog‘liq ekanligi asoslangan;

turli o‘xshatishlarning tahlillaridan izohli lug‘atlar tayyorlashda muhim manba sifatida xizmat qilishi ko‘rsatilgan;

o‘xshatishlarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar tilshunoslik uchun muhim ilmiy-nazariy ma’lumotlar berishi, oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan “Lingvokulturologiya”, “Matn lingvistikasi”, “Madaniyatshunoslik”, “Badiiy tahlil asoslari”, “Uslubiyat”, “Etnolingvistika” kabi fanlardan yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tanlangan muammoning aniq qo‘yilganligi, nazariy ma’lumotlar rasmiy manbalardan, so‘nggi yillarda chop etilayotgan ilmiy adabiyotlardan, misollar esa Tohir Malik asarlaridan olinganligi, to‘plangan materiallar vositasida qat’iy xulosalar

chiqarilganligi, antropotsentrik paradigma talablaridagi tadqiqot usullaridan foydalanganligi, oʻxshatishlarning lingvomadaniy tahlilida oʻzbek xalqining xususiy tabiatidan kelib chiqib yondashilganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga keng joriy etilganligi va olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Tohir Malik qissalarida qoʻllangan oʻxshatishlar misolida amalga oshirilgan lingvomadaniy tahlillar asosida yangi ilmiy qarashlar paydo boʻlganligida koʻrinadi. Dissertatsiyada keltirilgan fikr va mulohazalar oʻzbek lingvomadaniyatshunosligi sohasini nazariy jihatdan boyitishga, mavjud ilmiy qarashlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan “Lingvokulturologiya” va “Semasiologiya” faniga oid darslik va qoʻllanmalar yaratishda, oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlari talabalariga til va madaniyat bilan bogʻliq maxsus kurs hamda seminarlar tashkil etishda manba sifatida, shuningdek, oʻxshatishlarning izohli lugʻatlarini toʻldirish, mukammallashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tohir Malik qissalarida qoʻllangan oʻxshatishlarning lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq etish orqali olingan ilmiy natijalar asosida:

milliy ong, milliy-mental va badiiy tafakkur qirralarining lisoniy ong, lisoniy tafakkur orqali voqelanish xususiyatlari va ularning millat lingvistik konseptlari orqali amalga oshishi yoʻllari, omillari hamda sabablari borliqdagi narsa-buyum, predmet va ramz-timsollarga nisbatan baholanishi masalalari oʻxshatish etalonli birliklari vositasidagi hosilalar ekanligi ochib berilgan oʻrinlardan, taklif, tavsiyalar va xulosalardan Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasidagi 2021-2023-yillarda bajarilgan “PF-201912258. Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-fevraldagi 04/1-495-son maʼlumotnomasi). Natijada oʻzbek adabiyotidagi oʻxshatishga asoslangan matnlarning lingvokulturologik xususiyatiga doir izohlar hamda talqinlar mukammallashgan;

Tohir Malik badiiy lisoniy tafakkuri mahsullari hamda xalqimizning milliy-mental til birliklarining koʻnikmaviy hosilalariga aylangan oʻxshatishlar orqali xalqning oʻziga xos tafakkur tarzi, dunyo haqidagi tushuncha va qarashlari, tasavvurlari, olam manzarasining til vositalari orqali yuzaga chiqishi, nutqiy jonli va badiiy holatda aks etishi lingvistik qonuniyat asoslari orqali dalillash orqali olingan xulosalaridan Davlat ilmiy texnik dasturlari doirasidagi 2022-2023-yillarga moʻljallangan IL-52 tur-21091433 “Oʻzbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Vikipediya elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida)” boʻyicha amaliy loyihasida foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 8-fevraldagi 04/1-494-son maʼlumotnomasi). Natijada loyiha oʻzbek realiyalariga oid yangi nazariy qarashlar bilan boyitilgan;

yozuvchi qissalarida qoʻllangan “*bola*” oʻxshatish etalonlarining, *qoʻrquv*, *bezovta*, *holat* semali oʻxshatishlar hamda “*xotinday*”, “*mushtday*” kabi oʻxshatishlarning lisoniy belgi-xususiyatlari, nutqiy voqelikda anglatgan

konsepsiyaviy qo'llanish usullari, fikr ifodalashdagi kommunikativ-lingvistik vazifasi, emotsional ta'sir ko'lamini, mazmun qamrovidagi pozitsiyaviy o'rni hamda milliy lingvomadaniy miqdor va sifat belgilari, ularning badiiy va so'zlashuv nutqidagi voqelanishi ilmiy hamda amaliy jihatdan isbotlangan hamda Tohir Malik badiiyatida qo'llagan individual o'xshatishlarning kongnitiv tizimi va uzualligi hamda o'zbek milliy tili etaloniga aylangan turg'un va erkin o'xshatishlar, ulardagi milliy-madaniy stereotiplarning ifodalanishidagi pragmatik, badiiy, hissiy bo'yoqdorlik darajalari milliy-tarixiy va zamonaviy jihatdan lingvomadaniy tamoyillar orqali aniqlangan natijari va materiallaridan 2024-2025-yillarda O'zbekiston teleradiokanalining "Bedorlik", "Ijod zavqi", "Ta'lim va taraqqiyot" va "Millat va ma'naviyat" nomli ko'rsatuv va eshittirishlarining ssenariyalarini tayyorlashda foydalanilgan ("O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil 7-martdagi 26-36-958-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni chuqurlashgan, ilmiy dallillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 159 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Tadqiqotning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning o'rganilganlik darajasi, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**O'xshatishlar va ularning tadqiqi muammolari**" deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat bo'lib, uning birinchi faslida "*Tilshunoslikda o'xshatishlarning o'rganilishi*" tahlil qilinadi. O'xshatishlar tilning eng qadimiy va ajoyib mantiqiy shakllaridan biri bo'lib, asrlar mobaynida olimlar tomonidan poetika va ritorika nuqtayi nazaridan ham, mantiq nuqtayi nazaridan ham o'rganib kelingan. Eramizdan avvalgi IV asrda yashagan Panini grammatikasidan boshlab qadimgi hind poetik-grammatik traktatlarida o'xshatishlar poetik shakl sifatida o'rganilgan¹⁰.

O'xshatish bilishning qadimiy usullaridan bo'lib, u haqda Arastu ham o'z fikrlarini bildirgan. Uning fikricha, o'xshatish bolalik davridan boshlab insoniyat

¹⁰ Махмудов Н., Худойберганава Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 5.

uchun ilk bilish vositasi hisoblangan. Faylasuflar yangi bilimlarni nazariy bilimlar orqali o'rganisalar, oddiy odamlar biror holatni boshqasiga o'xshatish bilan o'rganadilar¹¹.

Yevropada XX asrning birinchi yarmidan boshlab o'xshatishlarni lingvistik maqomda o'rganishga e'tibor qaratildi. Ingliz tilshunosligida o'xshatishlarni o'rganish lug'atlar tuzish bilan ajralib turishini alohida aytib o'tish joiz. Tilshunos Grenville Kleiser "O'xshatishlar va ularning qo'llanilishi" ("Similes and their use") nomli kitobida ham she'riyatdagi, ham nasrdagi o'xshatish mazmunli matnlarni to'playdi¹². "Rossiyada XVIII asrda M.V.Lomonosovning o'xshatishlarga bag'ishlangan asarlari paydo bo'lib, u yerda tasvirning har bir elementi mavzuning tegishli elementlari bilan taqqoslanadigan batafsil taqqoslash xususiyatlariga ishora qiladi"¹³. Biroz vaqt o'tgach, professor V.Ogolsev¹⁴, V.Mokiyenkolar¹⁵ va L.A.Lebedeva¹⁶ tadqiqotlari natijasida turg'un o'xshatishlarning rus tilidagi izohli lug'atlari tuzildi. Bu lug'atlarda minglab birliklar o'z izohini topgan. N.L.Shadrinning "Ruscha-inglizcha turg'un o'xshatishlar lug'ati"¹⁷ ("Русско-английский словарь устойчивых сравнений") da rus tilidagi o'xshatishlarning 550 dan ortig'i ingliz tilidagi tarjimalari bilan berilgan.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlardan ilk bor Yusuf Xos Hojib "Qutadg'u bilig" asarida unumli foydalanib, go'zal misralar yaratgan: "*tushdek kechar*", "*go'yoki tizilgan marjondek*"¹⁸ va hokazo. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida o'xshatishlarni hosil qiluvchi qo'shimchalar haqida fikr yuritilgan¹⁹.

O'zbek tilshunoslari orasida M.Mukarramov shu mavzuda birinchilardan bo'lib monografik tadqiqot olib borgan bo'lib, uning "O'zbek tilida o'xshatishlar" kitobi alohida ahamiyatga ega²⁰. R.Qo'ng'urov "O'zbek tilining tasviriy vositalari" kitobida o'xshatishlar o'zbek tilshunosligida ham, adabiyotshunosligida ham (I.Sultonovning "Adabiyot nazariyasi" asari va yo'l-yo'lakay bayon etilgan ayrim xulosalar hisobga olinmaganda) XX asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrda alohida o'rganilmaganligini, keyinchalik M.Mukarramov va Y.Is'hoqovlarning ayrim asarlarida shu mavzu yoritilganligini ta'kidlaydi²¹.

N.Mahmudov "Til tilsimi tadqiqi"²², "Tilimizning tilla sandig'i"²³ kabi kitoblari; "O'xshatishlarda milliy mentallik jozibasi"²⁴, "O'xshatishlar – obrazli

¹¹ Arastu. Poetika. Axloqi kabir. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – B. 23.

¹² Kleiser G. Similes and their use. – New York: Funk and Wagnalis Company, 1925. – 381 p.

¹³ Разуваева Л.В. Сравнения как средство репрезентации художественной картины мира (на материале русской прозы конца XX – начала XXI веков): Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2009. – С. 11.

¹⁴ Огольцев В.М. Словарь устойчивых сравнений русского языка (синонимно-антонимический). – М.: Астрель, 2001. – С. 797.

¹⁵ Мокиенко В.М. Словарь сравнений русского языка. – Санкт-Петербург, 2003. – С. 603.

¹⁶ Лебедева Л.А. Устойчивые сравнение русского языка. Краткий тематический словарь. – Краснодар: Рубанский ГУ, 2003. – С. 300.

¹⁷ Шадрин Н.Л. Русско-английский словарь устойчивых сравнений. – М.: Золотой век, 2003. – С. 526.

¹⁸ Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. – Toshkent: Cho'lpon, 2007. – 200 b.

¹⁹ Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'oti-t-turk. 1-jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2016. – 488 b.

²⁰ Мукаррамов М. Ўзбек тилида ўхшатиш. – Тошкент: Фан, 1976. – В. 25-31.

²¹ Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 41.

²² Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Тошкент, Mumtoz so'z. 2017.

tafakkur mahsuli”²⁵ kabi maqolalarida o‘xshatish mavzusiga alohida to‘xtalib o‘tadi. “O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli” maqolasida o‘zbek tilshunosligida birinchi marta o‘xshatishlarning lingvokulturologik xususiyatlariga e‘tibor qaratadi²⁶. N.Mahmudov va D.Xudoyberganovalarning “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning izohli lug‘ati”da o‘zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini ochib beruvchi 550 ga yaqin o‘xshatishlarning izohlari misollar bilan sharhlangan. D.Xudoyberganovanning ishida o‘xshatish qurilmalarining matn yaratilishidagi o‘rni, uning mazmuniy tarkibiga ta’siri haqida qimmatli mulohazalar berilgan. Bu borada olimaning “Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug‘ati”²⁷, “Matnning antropotsentrik tadqiqi”²⁸ nomli monografiyasi, “Til, tafakkur, madaniyat”²⁹ kabi kitoblari ham ahamiyatli manbalardan sanaladi.

O‘xshatishlar mavzusi yuzasidan qilingan ishlar orasida F.Usmanovning “O‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi dissertatsiyasida o‘zbek tilidagi lingvomadaniy xususiyatga ega bo‘lgan o‘xshatishlar haqida so‘z boradi³⁰. Jo Min Yong tadqiqotida esa o‘zbek va koreys xalqlari o‘xshatishlari ham qiyosiy, ham lingvomadaniy jihatdan tadqiq etiladi³¹. N.Ismoilova o‘z tadqiqotida “Qur’oni Karim”ning tafsiridagi o‘xshatish konstruksiyalarining lingvistik xususiyatlarini tadqiq etadi³². S.Babanazarova o‘zbek tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning olamning konseptual manzarasidagi o‘rni belgilashi, o‘xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi qonuniyatlarini ochib berish masalalari haqida so‘z yuritadi³³.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “*O‘xshatishlarda milliy-madaniy konnotatsiyaning ifodalanishi*” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘xshatishlarda konnotatsiyaning ifodalanish sabablariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Har bir xalq tilida uchrovchi o‘xshatishlar o‘sha xalq madaniyatidan so‘zlaydi. Sababi bir xalqning mifologiyasi, tarixi, qarashlari, urf-odatlar boshqa bir xalqnikiga aynan o‘xshamaydi. Konnotatsiyaga olamning qadriyat rivojlanishining shakli sifatida qarash mumkin. Nemis tilshunosi M.Birvish konnotatsiyani kiyimga qiyoslaydi: “Kiyimning o‘ziga xos shakliy belgilari uni kiygan odam haqida muayyan axborot beradi. Xuddi lisoniy farqlar kabi kiyimning turli tiplari va stillari ijtimoiy munosabatlardagi farqlarni ko‘rsatadi”³⁴. Konnotatsiya haqida so‘z borar ekan,

²³ Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012.

²⁴ Mahmudov N. O‘xshatishlarda milliy mentallik jozibasi // Til va adabiyot ta’limi. – Тошкент, 2019. – № 2.

²⁵ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур махсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3.

²⁶ Махмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур махсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 23.

²⁷ Худойберганова Д. Лингвокультурология терминларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Турон замин зиё, 2015. – 44 б.

²⁸ Худойберганова Д. Матннинг антропоцентриқ тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – 136 б.

²⁹ Худойберганова Д. Тил, тафаккур, маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 120 б.

³⁰ Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2020. – 173 б.

³¹ Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – 142 б.

³² Ismoilova N. Qur’oni Karim tafsiridagi o‘xshatishlarning lingvistik xususiyatlari: Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Andijon, 2023. – 140 b.

³³ Babanazarova S. O‘xshatishlarda olamning lisoniy konseptuallashtirilishi (o‘zbek tilidagi o‘xshatishlar misolida): Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Toshkent, 2023. – 122 b.

³⁴ Стернин И.А. Проблемы анализа структуры значения слова. – Воронеж: Из-во Воронежского ГУ, 1976. – С. 68.

uning yopiqlik xususiyatiga ega ekanligi, ya'ni bir xalq uchungina tanish bo'lgan predmet, shaxs, voqea-hodisalarni ifodalashga xizmat qilishi, muayyan til egalarining milliy-madaniy tasavvur va qarashlarini tasvirlashga xizmat qilishi ma'lum bo'ladi.

Ushbu faslda milliy-madaniy konnotatsiyaning o'xshatishlarda namoyon bo'lishi haqida so'z boradi. Tohir Malik qissalarida uchrovchi "it" etalonli o'xshatishlar misolida konnotatsiyaga oydinlik kiritilgan. Adib qissalarida "it" etalonli o'xshatishlarning yigirmaga yaqin o'rinlarda qo'llanganligi, shundan o'n martasida bir-birini takrorlamay, yangi semani ochib berishga xizmat qilganligi, ular ifoda etgan semalarda o'zbek xalqi qarashlarining aks etishi kabi fikrlar keng yoritilgan. Shu bilan birga, o'zga tillardagi "it" etalonli o'xshatishlarning ifoda mazmuni o'zbek tilidagi shu etalonli o'xshatishlarning ma'nosi bilan taqqoslangan. Masalan: *Bundan tashqari xonasiga kiruvchini it kabi qopadigan rahbar-u rahbarchalarga azaldan tob-u toqati yo'q*³⁵. Ushbu parchada *it kabi qopadigan* o'xshatishidan foydalanilgan bo'lib, insonga xos bo'lgan eng qo'pol muomalani tasvirlash uchun qo'llangan. Bu o'rinda o'xshatish jerkib, urushib gapirmoq, dag'al gap bilan dilini og'ritmoq kabi semalarni o'zida jamlayapti. *Itday xor qilib haydab kelishgan* (Shaytanat, 1-kitob, 346-bet). Yozuvchi tomonidan ishlatilgan *itday xor bo'lmoq* o'xshatishi insonning qiyin ahvolini tasvirlash uchun qo'llangan. Ayni o'xshatishga etalon sifatida *it* olingani e'tiborni tortadi. O'zbek tilida xorlikni ifodalash maqsadida bu hayvon nomini keltirish uchun bir nechta sabablar topiladi. O'zbek xalqi turmush tarzida it faqatgina qo'riqlash maqsadidagina kerak bo'ladi. Unga boshqa uy hayvonlariga qilinadigan e'tibor kamdan-kam oilalarda kuzatiladi. Ammo itdek sadoqatli hayvon topilmaydi. Bundan tashqari, itdagi xorlikni uning haydalishida ham ko'rish mumkin, sababi boshqa hayvonlarni o'ziga xos so'zlar bilan ketishga undaymiz, masalan, qushlarga *kish-kish*, mushukka *pisht*, tuyoqli hayvonlarga *chu*, itga esa *tur, tur yo'qol, tur ket* kabi qo'pol so'zlarni ishlatamiz. *Itday xor bo'lish* konstruksiyasi turg'un o'xshatish bo'lib, uning semalari tarkibida yuqoridagi fikrlar jamlangan. Keltirilgan matnda yana bir o'xshatish qo'llangan: *itning o'ligiday olib chiqib tashlashadi* o'xshatishi bo'lib, yuqorida aytilgan fikrlarni o'zida ifodalagan.

Bobning uchinchi faslida "*Badiiy matnda o'xshatishlarning o'rni*" haqida fikr yuritladi. Badiiy adabiyotni tasviriy vositalardan xoli tasavvur etib bo'lmaydi. Tasviriy vositalar badiiy matnning tushunarligini, rang-barangligini ta'minlovchi muhim vositalardan sanaladi. Jo Min Yongning shu mavzuga bag'ishlangan tadqiqotida o'xshatishlarga nisbatan shunday fikr keltirilgan: "O'xshatish nafaqat tashqi dunyoni bilish usuli, ayni zamonda uni til o'rganish bilan birga, madaniyatni ham o'rganishga imkon beradigan eng samarali usullardan biri deyish mumkin. Ma'lumotlarga ko'ra, kishilar kundalik muloqot jarayonida har bir daqiqada olti marta o'xshatishlardan istifoda etishar ekan. Bu ham o'xshatishlarning til va madaniyatda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi"³⁶.

³⁵ Tohir Malik. Shaytanat. 5 tomlik. 3-kitob. – Toshkent: Sharq, 2013. – B. 99. (keyingi shu manbalardan olingan o'rinlarda kitobning qismi va beti keltiriladi).

³⁶ Жо Мин Ёнг. Ўзбек ва корейс тилларида ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Тошкент, 2022. – В. 13.

O‘xshatishlarni o‘rganish davomida uning quyidagi xususiyatlari alohida aniqlandi:

1. Obrazlilik, badiiylik, bo‘yoqdorlik, emotsionallik. Ushbu sanalanganlar o‘xshatish haqidagi eng asosiy xususiyatlardan bo‘lib, badiiy matnning qiymati ana shu sanalangan xususiyatlar bilan belgilanadi. Albatta, bu belgilar faqat o‘xshatishlarga xos emas. Bunday xususiyat metafora, sifatlash, iboralarga ham xosdir, ammo o‘xshatishlar boshqa tasvir vositalariga qaraganda ancha faoldir.

2. Ixchamlik va lo‘ndalik. Bu xususiyat ham o‘xshatishlarda aks etib, unda so‘zlovchi o‘z fikrini qiynalmay tinglovchiga yetkaza oladi. O‘xshatishni keltirish bilan tasvir ham qisqa bo‘ladi, tinglovchi esa noma’lum holatni avvaldan bilingan boshqa holatni eslash bilan qiyinchiliksiz tasavvur qiladi.

3. Maqsadni anglash va anglatish. Muallif tomonidan qo‘llangan har qanday o‘xshatish uning maqsadini belgilaydi. Kitobxon tomonidan esa muallifning maqsadini anglashga yordam beradi.

4. Yangi bilim hosil qilish. Erkin o‘xshatish kutilmaganligi bilan kitobxonni o‘yga toldiradi, tasavvurini qo‘zg‘aydi. Turg‘un o‘xshatishlarda esa biroz qiyinroq, chunki ular hamma tomonidan tanilgan, yaxshi bilingan, ko‘rilgan bilimlar haqida so‘zlaydi.

5. O‘xshatishlar yodda saqlash texnikasi sifatida. O‘xshatishlarga xos mazkur xususiyat egallanayotgan yangi bilimlarning esda saqlanishiga yordam beradi. Bu haqda D.Karnegi shunday fikr keltiradi: “O‘xshatishlar kutilmagan va noyob vositadir. U tinglovchining diqqatini tortadi hamda uzoq esda saqlanib qoladi”³⁷.

6. O‘xshatishlar milliy me‘yor, milliy o‘lchov, xalq haqida so‘zlovchi ko‘zgidir. Tilning o‘zini bilish bir millat haqida gapirishga yetarli emas. Chunki xalq madaniyati bilan xalqdir. Shunday qilib, har qanday xalq bir turdagi narsa-buyumlarni o‘zi bilmagan holda ustunlik tarafini anglayveradi, ana shu ustunlik uning taqdirida turg‘unlik hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Demak, taqqoslash, qiyoslash inson hayotining ajralmas qismidir. O‘xshatishlar xalq madaniyati haqida darak beruvchi vositadir. Ularda xalqning munosabati, quvonchi, g‘azabi, moyilligi, roziligi yoki noroziligi kabilar o‘z ifodasini topadi.

Demak, o‘xshatishlar badiiy matndagi asosiy tasvir vositasi bo‘lib, kitobxonga tasvirlash kerak bo‘lgan manzarani chizishning eng qulay va oson qurolidir. Bundan tashqari yangilikni anglash, xulosa yasash uchun ham qo‘llanma bo‘la oladi.

Dissertatsiyaning “**Tohir Malik asarlaridagi o‘xshatish etalonlarining semantik va lingvomadaniy xususiyatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobi ham uchta fasldan iborat bo‘lib, birinchi faslida “*Yozuvchi asarlarida o‘xshatish etalonlari*” haqida so‘z boradi. O‘xshatishlarning hosil qilinishida o‘xshatish etalonlari muhim ahamiyatga ega. Etalonlar milliy dunyoqarashni aks ettiradi, chunki ular dunyodagi hodisalarning o‘z milliy-odatiy o‘lchovi natijasidir. O‘xshatishlar tarkibidagi to‘rt unsurning eng asosiysi etalondir. Etalon o‘xshatilayotgan ikki predmet o‘rtasidagi o‘xshashlik aloqasini o‘rnata oluvchi, o‘xshatish hodisasidagi go‘zallikni ta‘minlaydigan asosiy vositadir. Bu unsur haqida so‘z ketganda, shuni alohida ta‘kidlash kerakki, o‘xshatishning ohorliligi, u

³⁷ Карнеги Д. Как вырабатывать уверенность в себе и илиять ил людей выступая публично . – М.: Прогрес, 1990. – 442 б.

orqali o'xshatilayotgan predmet (subyekt)ni tasavvur qilish, o'rni kelganda, o'xshatishning turg'unlashishi, tinglovchi yoki o'quvchiga zavq bag'ishlay olishi kabi asosiy holatlarning barchasini etalon ta'minlaydi. Shunday ekan, o'xshatishlar tarkibidagi etalonni *o'xshatish yadrosi* deyish ham mumkin. Etalonlar shunchaki tanlanmaydi. Etalonga olinayotgan predmet, shaxs, voqea-hodisalarning etalon bo'lishga loyiq xususiyatlari o'zining turdoshlaridan ancha ustun bo'lishi kerak. Masalan, gulni etalon qilish uchun undagi go'zallik asos qilib olinadi, chunki undagi go'zallik boshqa o'simliklardagidan ustun.

T.Malik qissalarida *bola* etaloni orqali qahramonlarning xarakteri va xatti-harakati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab rang-barang o'xshatishlar uchraydi. "Shaytanat" qissasidagi bu etalonda aks etgan semalarni quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *Namozov "ilm" degan so'zni eshitib, xuddi "daftarim uyda qolibdi", deb yolg'on gapirib qo'yib uyalgan boladek boshini egdi* (Shaytanat, 1-kitob, 30-bet). Bu o'xshatish tuhmat bilan qamalgan vino zavodining direktori Sharif Namozovga nisbatan qo'llangan. O'xshatishda nega aynan "*daftarim uyda qolibdi*" deb yolg'on gapirib uyalgan bola"ga o'xshatilayotgani e'tiborli. Odatda, o'quvchi uy vazifasini bajarmagan bo'lsa, "*daftarim uyda qolibdi*" deb yolg'on gapiradi. O'qituvchining bu gapga ishonmasligi hammaga ma'lum, vazifa tayyorlagan o'quvchi hech qachon daftarini tashlab kelmaydi. Ana endi Sharif Namozovning bu o'xshatishga sabab bo'lgan ahvoliga bir nazar tashlasak. Tergovchi Sharifning qoradori savdosi bilan qamalganligi tuhmatligini biladi, ammo Sharif uning tuhmatligini isbotlashga ko'zi yetmay taqdirga tan beradi. Sharifning aldayotgani oyday ravshan. Shuning uchun ham bu o'rinda Sharifga nisbatan aynan *alday olmay uyalib qolgan bola* o'xshatishi qo'llangan.

Tahlillar davomida "O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati"da keltirilgan *bola* etaloni bilan bog'liq o'xshatishlar bilan birgalikda, lug'atda keltirilmagan semalari ham asarda uchrashiga guvoh bo'lindi. Qissada *bola* etaloni bilan bog'liq 1) *ojizlikni ifodalovchi*; 2) *itoatkorlikni ifodalovchi*; 3) *qo'rquvni ifodalovchi*; 4) *maqtanishni ifodalovchi* etalonga ega bo'lgan o'xshatishlar qo'llanganligi kuzatildi.

Faslda *pashshadek* va *chivindek* o'xshatishlarida aks etgan ma'no hamda lisoniy zidlik natijasida yuzaga kelgan o'xshatish etalonlari haqida, hajm-o'lchov semali o'xshatishlar tahlili, *kaft*, *bel*, *bilak* kabi o'xshatish etalonlarining rang-barangligi haqida so'z boradi va misollar tahliliga e'tibor qaratiladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli "*Tohir Malik qissalarida o'xshatish etalonlari semantikasi*" deb nomlanadi. Yozuvchi qissalaridagi o'xshatish etalonlarning mazmuni turli xil. Asardagi o'xshatish etalonlarining mavzusi va madaniy kodlariga asoslanib turli guruhlarga bo'lib o'rganish mumkin:

- 1) tabiat hodisalari ishtirok etgan etalonlar (fazoviy kod);
- 2) diniy tushunchalarni aks ettiruvchi etalonlar (ma'naviy kod);
 - a) diniy makonni aks ettirgan etalonlar;
 - b) sakral etalonlar;
- 3) hayvonlar bilan bog'liq etalonlar (zoomorf kod);
- 4) parrandalar bilan ifodalangan etalonlar (zoomorf kod);
- 5) hasharotlar bilan ifodalangan etalonlar (zoomorf kod);

- 6) osmon jismlari bilan ifodalangan etalonlar (fazoviy kod);
- 7) o‘simliklar bilan ifodalangan etalonlar (biomorf kod);
- 8) metal nomlari bilan ifodalangan etalonlar (predmetli kod);
- 9) shaxs bilan bog‘liq etalonlar:
 - a) kasb-kor bilan bog‘liq etalonlar;
 - b) amal-mansab bilan bog‘liq etalonlar;
 - c) salbiy psixologik holat bilan bog‘liq etalonlar;
 - d) salbiy mashg‘ulotni aks ettirgan etalonlar;
 - e) jins bilan bog‘liq etalonlar;
 - f) yosh xususiyati bilan bog‘liq etalonlar;
 - g) qarindosh-urug‘lik bilan bog‘liq etalonlar;
- 10) ilmiy terminlar bilan bog‘liq etalonlar (ilmiy kod) kabi.

Yig‘ilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, adib murojaat qilmagan soha deyarli qolmagan. Faslda *xotindek* etalonida aks etgan semalar, *itdek ichmoq*, *moldek ichmoq*, *cho‘chqadek ichmoq* o‘xshatishlarining ma’noviy farqlari, *qo‘rquv*, *holat*, *bezovta*, *natijasizlik* kabi semalarni ifoda etgan o‘xshatishlarga ham alohida to‘xtalangan. *Musht* so‘zi bilan bog‘liq o‘xshatishlar rang-barangligi tahlilga tortilgan, undan tashqari asarda insonning turli holatlari ham tasvirlanganki, ularning barchasi etalon birikmali holatda kelgan. Bunday o‘xshatishlar bir-birini takrorlamaganda 60 dan ortiq miqdorni tashkil etib, har biri yangi-yangi semani ifodalash uchun xizmat qilgan. Yoki bir xil semani ifodalagan bo‘lsa ham sifatlovchining shakli har xil. Bu xildagi o‘xshatishlarning ijobiy, salbiy va neytral semalarini ifodalashi jadval ko‘rinishida berilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

“Odam” etalonining turli sifatlovchilar bilan kengayib neytral, ijobiy, salbiy semalarni ifodalashi

T/ r	O‘xshatish	Ijobiy	Salbiy	Neytral
1.	Muhim ish bilan band odamday	-	-	+
2.	Gunohkor odamday	-	+	-
3.	Tirik odamday	-	-	+
